

## BOBUR SHE'RIYATIDA MA'SHUQA YUZI BILAN BOG'LIQ O'XSHATISHLAR

**Fattoyeva Ruxsora Bahodir qizi**

BuxDu filologiya fakulteti 2- kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Bobur ijodidagi yor yuzi bilan bog'g'liq o'xshatishlar tahlil qilingan. Boshqa ijodkorlar ijodidagi o'xshatishlardan misollar keltirilib, chog'ishtirilgan.

**Kalit so'zlar:** o'xshatish, yuz, oy, quyosh, gul, lola, nasrin, gulzor.

Mumtoz adabiyotimizda ishqiy g'azallar beqiyos o'ringa ega. Bunday g'azallarda yor, ya'ni ma'shuqaning go'zalligi tavsifiga keng urg'u beriladi. Ma'shuqaning jamoli, ko'zlari, qoshlari, sochlari, qad-qomati, umuman tashqi qiyofasi o'zgacha ta'riflanadi. Zahiriddin Muhammad Bobur ham o'z she'riyatida yor go'zalligini o'z uslubida mohirona ifodalagan. Jumladan, yorning yuzi bilan og'liq o'xshatishlar kishi e'tiborini tortmay qolmaydi. Quyida shu kabi o'xshatishlarni ko'rib o'tamiz.

Yor yuzining quyoshga o'xshatilishi:

Quyoshdek yuzungu durdek tishingning hajrida, ey oy,  
Ko'zumning yoshidur yuz qatrau har qatra durdona.

(4; 36)

Mazmuni: Ey go'zal yorim, quyoshdek yuzing, durdek tishingning hajrida ko'zimning yoshi yuz qatra, har qatra esa durdonadir. Baytda yor yuzi quyoshga o'xshatilgan. Yor yuzini quyoshga o'xshatish boshqa ijodkorlar ijodida ham mavjud. Masalan Xorazmiy o'z g'azalida bu o'xshatishdan foydalangan.

Quyosh yanglig' yuzungizni yorutti,  
Falakdek bizni sargardon yarotti.

Yor yuzining gulga o‘xshatilishi:

Gul tikandur ko‘zlarimga ul yuzi guldin yiroq,  
Sarv o‘qdur bag‘rima ul sarvi bolo bo‘lmasa.

(4; 38)

Mazmuni: Ul yuzi guldek yorimdan yiroq bo‘lsam, gul ko‘zlarimga go‘yo tikandek, bo‘yi sarvdek yorim bo‘lmasa bag‘rimga sarv o‘qdek. Baytda yor yuzi gulga qiyoslangan. Bu kabi o‘xshatish boshqa shoirlar ijodida mavjud. Masalan Mashrab “Kokulung anbardurur, jon ichida jonon qiz...” deb boshlanuvchi g‘azalida bu tashbehni qo‘llagan.

Lablaring erur la’ldek, yuzlaring qizil guldek,  
Barcha sengakim quldek, xizimatingga qurbon qiz.

(1; 49)

Yor yuzining oyga o‘xshatilishi:

Ey, oy yuzung olida quyosh sharmanda,  
Shirin so‘zu yaxshi xulqungga men banda.  
Hijronda necha noma bila so‘zlashaling,  
Yo sen beri kel, yo borayin men anda.

(4;165)

Mazmuni: Oydek yuzing oldida quyosh ham sharmandadir. Shirin so‘zing va yaxshi xulqingga men bandaman. Hijron aro faqat maktub orqali so‘zlashdik, endi esa yo mening oldimga kel yoki men boray. Ushbu ruboiyda yorning yuzi oyga qiyoslangan. Mumtoz adabiyotda yor yuzini oyga o‘xshatish keng tarqalgan. XIV asrda yashab ijod etgan adib Sayfi Saroyi ham undan o‘z g‘azalida foydalangan:

Ul yuzi oykim, jahonning jonidur,  
Bu zamona xublarining xonidur.

(3;16)

Yor yuzining jon gulshanining gulzoriga o‘xshatilishi:

Yuzung, ey sarv, jonim gulshanining toza gulzori,  
Qading, ey gul, hayotim bog‘ining sarvi ravonidur.

(4; 115)

Baytda yor yuzi oshiq joni gulshanining gulzoriga qiyoslangan. Bu kabi o‘xshatishlar shoirlar ijodida nisbatan kamroq bo‘lib, Sayfi Saroyi g‘azalida yor yuzini oshiq joni gulshanining gulzoriga emas, shunchaki gulzorga o‘xshatgan:

Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur,  
Bo‘yina oshiq sanavbar, yuzina gul zor erur.  
(3;24)

Undan tashqari Bobur ma’shuqa yuzini gulistonga ham qiyos etgan:  
Xati binafsha,xadi lola, zulfi rayhondur,  
Bahori husnda yuzi ajab gulistondur.  
(4; 120)

Yor yuzining lolaga o‘xshatilishi:

Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzing hajrida sarg‘ardim,  
Ko‘rub rahm aylagil, ey lola rux, bu chehrayi zardim.  
(4; 82)

Mazmuni: “Gul yuzing hajrida xazon yaprog‘iday sarg‘aydim, ey lola yuz yorim, sarg‘aygan chehramni ko‘rib rahm aylagin”. Baytda yorning ruxi, ya’ni ruxsori lolaga o‘xshatilgan. Fors-tojik tilida “ruxsor” yuz degan ma’noni anglatadi. Shoirlar ijodida yuzni lolaga o‘xshatish ko‘p uchraydi:

Loladek ruxsoringga boqq‘onda Sakkokiy ko‘zi,  
Yoshini ko‘rgon kishilar jola boron otodi.  
(2;35)

Loladek qadah tut Navro‘z ayyomi,  
Lolayuz yor ila xushdir dil komi.  
Shodlik ila may ich, feruza falak  
Tuproq qilur, oxir, shul ish anjomi.  
(Umar Hayyom)

Yor yuzining nasringa o‘xshatilishi:  
Ey yuzi nasrin, qomati shamshod,  
Necha qilursen jonima bedod.  
(4; 50)

Bu baytda yor yuzi nasringa o'xshatilgan. Nasrin bu oq ochiladigan bir xil gul hisoblanadi. Yor yuzini nasringa qiyos etish so'z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy g'azalida ham bor ekan:

Ey orazi nasrin, sochi sunbul, qadi shamshod,  
Bulbul kibi hajringda ishim nolavu faryod.  
(5; 81)

Xulosa qilib aytish mumkinki, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodidagi har bir unsur adabiyot gulshanini beqiyos chechaklar bilan bezab turadi. Ayniqsa, shoir ijodidagi o'xshatishlar ulkan dengiz tubidagi durlar kabidir. Ularni o'rganib, tahlil qilganimiz sari yangidan yangi qirralar namoyon bo'lib boraveradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI: (REFERENCES)**

1. Mashrab. "Mabdai Nur". -T.: 1994;
2. Mavlono Sakkokiy devoni. T.: Yangi asr avlodi. 2017
3. Sayfi Saroyi. She'rlar, Guliston. — T.: 1968.
4. Бобур. Асарлар. Уч жилдлик.-Т.: Фан, 1965-66. I жилд.
5. Навоий. Фаройиб ус-сиғар. / Хазойин ул-маоний. Мукаммал асарлар тўплами. Ўнгирма томлик. (Нашрга Ҳамид Сулаймон тайёрлаган; масъул муҳаррир Порсо Шамсиев). –Тошкент: Фан, 1988. -3 том.